

**XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHDA DAVLAT SOLIQ SIYOSATI**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
Namangan filiali Bank ishi yo'nalishi  
4-kurs talabasi  
O'rmanjanova Mohina Tohirjon qizi*

**Annotatsiya:** Maskur maqolada O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etishda davlat soliq siyosatining o'rni va ahamiyati yoritilgan. So'nggi yillarda soliq tizimining soddalashtirilishi, imtiyozlarning kengaytirilishi hamda stavkalarining pasaytirilishi xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratigani ta'kidlangan, huquqiy barqarorlik va shaffof masalalarda mavjud malumotlar ham tahlil etilgan. Maqolada soliq imtiyozlarining investitsiyalar hajmini oshirishdagi roli, xalqaro tajribaga asoslangan soliq siyosati modellari hamda uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Xorijiy investitsiya, soliq siyosati, soliq imtiyozlari, investitsion muhit, iqtisodiy o'sish, davlat islohatlari, soliq tizimi, investorlar ishonchi huquqiy barqarorlik, O'zbekiston iqtisodiyoti.

**Аннотация:** В данной статье раскрыта роль и значение государственной налоговой политики в привлечении иностранных инвестиций в Республике Узбекистан. Отмечается, что в последние годы упрощение налоговой системы, расширение льгот и снижение ставок создали благоприятные условия для иностранных инвесторов. Вместе с тем, проанализированы существующие проблемы в сфере налогового администрирования, правовой стабильности и прозрачности.

В статье также рассмотрена роль налоговых льгот в увеличении объёмов инвестиций, приведены модели налоговой политики, основанные на международном опыте, а также предложены меры по совершенствованию механизмов привлечения долгосрочных инвестиций.

**Ключевые слова:** Иностранные инвестиции, налоговая политика, налоговые льготы, инвестиционный климат, экономический рост, государственные реформы, налоговая система, доверие инвесторов, правовая стабильность, экономика Узбекистана.

**Annotation:** This article reveals the role and importance of state tax policy in attracting foreign investments to the Republic of Uzbekistan. It is noted that in recent years, the simplification of the tax system, the expansion of tax benefits, and the reduction of tax rates have created favorable conditions for foreign investors. At the same time, existing problems in tax administration, legal stability, and transparency are analyzed.

The article also examines the role of tax incentives in increasing investment volumes, presents tax policy models based on international experience, and proposes measures to improve mechanisms for attracting long-term investments.

**Keywords:** Foreign investments, tax policy, tax incentives, investment climate, economic growth, government reforms, tax system, investor confidence, legal stability, economy of Uzbekistan.

Yurtimizda iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va bu jarayonda davlatning bosh islohotchi ekanligi mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu jarayon investitsiya faoliyatini tartibga solish borasida ko'plab qarorlar qabul qilishni talab etadi. "O'zbekiston bilan ishlash istagini bildirgan xorijiy investorlar bilan mustahkam aloqalar, natib, loyiha boshidan oxirigacha ularga yordam berish, oddiy qilib aytganda, ularni qo'lidan yetakalab "natijani ta'minlash kerak", -dedi Shavkat Mirziyoyev. Iqtisodiyot tarmoqlariga investitsion faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'ymasdan, ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va samarali o'zlashtirish ishlarini amalga oshirmasdan turib iqtisodiyotni barqaror o'stirish, asosiy kapitalni yangilanishiga va butun investitsion-moliyaviy sohada tarkibiy o'zgarishlarga erishib bo'lmaydi shuning uchun davlat tomonidan ushbu islohotlar tartibga solib turiladi. Mamlakatni rivojlanish va iqtisodiy holatini yaxshilashda xorijiy investitsiyalarning o'rni muhim hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyani jalb qilishda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) tashkil etila boshlandi masalan Navoiy EIZ keyinchalik rivojlantirildi. Chet ellik investorlar uchun soliq imtiyozlari, bojxona tolovlaridan ozod etish kabi rag'batlar berildi. Xorijiy investitsiyalarni himoya qiluchi birinchi qonunlar qabul qilindi (masalan „Xorijiy investitsiyalar to'g'risida“ gi qonun -1998-yil.

2001-2016 yillar oralig'ida investitsion muhitni baqaror qilish, soliq stavkalari bosqichma –bosqich kamaytirildi, chet el kapitalidagi korxonalarga 5-7 yilga qadar soliqdan ozodlik berildi, Bojsiz import texnika, uskunalar, xomashyo olib kelishda bojxona tolovlarini ozod etilgan, soliq kodeksi 2008-yilda yangilandi , soliqqa tortish tizimi yanada barqaror bo'ldi , investitsion loyihalar uchun maxsus soliq rejimlari joriy qilindi.

2017-2020 yildan Ochiq iqtisodiyot davri boshlandi. Prezident Shavkat Mirziyayev davri boshlanishi bilan xorijiy investorlar boshlandi, o'zgarishlar: valyuta erkinlashtirildi- investorlar foydasini erkin konvertatsiya qila olish imkoniyatiga ega boladi. 2019-yilda yangi Soliq kodeksi qabul qilindi (2020-yildan yildan kuchga kirdi) Soliqlar soni kamaytirildi, foyda solig'I Soliqlar soni kamaytirildi, foyda soligi 14% gacha tushirildi, QQS (qo'shilgan qiymat solig'I) soddalashtirildi, erkin iqtisodiy zonalar soni kopayadi (Angren, Jizzax va boshqalar)

Hozirgi davr 2021-2025 yillar maqsa: Xalqaro standartlarga mos, soddalashgan soliq tizimi yaratish

Amaldagi siyosat: Xorijiy investorlar uchun „Barqaror soliq rejimi“ kafolatlari berilmoqda- ya’ni, qonun ozgarsa ham ilgari kirgan investorlar eski sharoit bilan ishlashda davom etadi. Yirik investitsion loyihalar uchun individual soliq shartnomalari (tax agreement) tuzilmoqda. (yashil energetikava IT sohasi uchun soliq imtiyozlari kengaytirildi. Raqamli soliq boshqaruvi ( masalan, E-soliq, Mysoliq) joriy qilindi.

### Xulosa

| Davr berilgan | Asosiy yo’nalish          | Xorijiy investorlarga afzalliklar              |
|---------------|---------------------------|------------------------------------------------|
| 1991-2000     | Bozor tizimiga o’tish     | Soliq va bojxona imtiyozlari                   |
| 2001-2016     | Barqarorlashtirish        | Past stavkalar, maxsus rejimlar                |
| 2017-2020     | Ochiqlik siyosati         | Valyuta erkinligi, yangi Soliq kodeksi         |
| 2021-2025     | Raqamli va adolatli tizim | Barqaror soliq kafolatlari „yashil“ imtiyozlar |

**Soliqlar va investitsiyalarning o’zaro bog’liqligi:** Soliq tizim tizimi iqtisodiyotni rivojlantirish uchun investitsiya faoliyatini qo’llab quvvatlashning samarali mexanizimini o’ziga mujassam etishi lozim. Mamlakatda sog’lom investitsion muhitni shakllantirish murakkab makroiqtisodiy jarayonlardan biridir. Soliq mexanizmidagi o’zgarishlar yalpi talim va yalpi taklifning o’zgarishlar yalpi talab va yalpi taklifning o’zgarishiga ta’sir qilishi bilan birgalikda, investitsiyalar o’zgarishiga ham ta’sir etadi. Bunday olib qaraganda soliqlar va investitsiyalar o’rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Soliqlar vositasida yangidan yaratilgan qiymatning davlat va soliq to’lovchilar o’rtasidagi aloqadorlikni ta’minlaydi. Soliq bo’yicha yengilliklar berishi ko’p jixatdan soliq tolovchilarni ishlab chiqishga rag’batini kuchaytiradi, ularda ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish moyilligini kuchaytiradi, O’z navbatida soliqlar vositasida investitsiyalarning rag’batlantirilishi kelajakda davlat bujetiga undiriladigan soliq bazasini kengayishiga xizmat qiladi.

Masalan bu holatni birgina misol bilan izohlashimiz mumkun. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining „Bozorni iste’mol tavarlari bilan toldirishni rag’batlantirish xamda ishlab chiqaruvchilarva savdo tashkilotlarning o’zaro munosabatlarini takomillashtirish chora- tadbirlari to’g’risida “ gi 2002 yil 13 noyabirdagi 290-son Qaroriga muvofiq yuqori sifatli, raqobatbardoshli is’temol

Tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirishni va ularning assortimentini kengaytirishni rag'batlantirish, ichki is'temolbozorini ular bilan yuqori darajada to'ldirish maqsadida 2003 yildan 2008 yilga qadar yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'I, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq, ayrim turdagi tovarlarga nisbatan belgilangan aksiz solig'I, er solig'I bo'yicha bir qator imtiyozlar belgilanganki, ushbu imtiyozlar vositasida korxonalarning investitsiya mablag'lari kengaytirilishiga erishishi asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Xorijiy investitsiyalarning oqimi taminlashda davlat siyosati va amalga oshirilayotgan isloxotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda yaratilgan xuquqiy muhit, soliq va bojxona imtiyozlari, investitsiya kafolotlari, moliyaviy barqarorlik, hamda qulay biznes muhiti xorijiy investitsiyalar uchun eng asosiy omillar hisoblanadi. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan isloxotlar, jumladan iqtisodiyotni erkinlashtirish, xususiylashtirish jarayonlari, valyuta bozorlarining libirallashuvi va maxsus iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi chet el kapitalining kirib klishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Biroq davlat siyosatining sustligi, huquqiy kafolotlarning zaifligi yoki siyosiy – iqtisodiy beqarorlik kabi omillar investitsiya muhitini sezilarli darajada salbiylashtirishi mumkin. Shu nuqtaiy nazardan, davlat siyosati va islohatlarning xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi o'rni va ta'sirini chuqur ornatish bugungi kunda juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, samarali siyosat va izchiil islohatlar xorijiy capital oqimini ko'paytiradi, natijada iqtisodiy taraqqiyot va mamlakatning xalqaro maydonidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xorijiy investitsiyalarni samaradorligini oshirish uchun fond bozorini ijobiy tarzda o'zgarish zarur. QQB ning asosiy karakteristikasi jamg'armalarni akkumlatsiya qilish imkonini oshiruchi moliyaviy instrumentlarning keng spektrining mavjudligi hisoblanadi. Bozorning yirikdorli tuzulmasi (yirik paketlarda va erkin momiladagi sezilmas aksiyalar hajmiga ega bo'lishi) shuningdek yomon emission, dividendlar, investitsion va korporativ siyosatning belgilangan tendensiyasi instrumentlar sonini qisqartiradi.

Qimmatli qog'ozlar umumiy tuzulmasida korporativ aksiyalar usulini kengaytirish va O'zbekistonda unchalik mashhur bolmagan korporativ qog'ozlar (jozibador aksiyalarning turli ko'rinishlari, aksiyalarga opsionlar, konverterlangan obligatsiyalar va boshqalar) ko'rinishlariga muomilani tashkil qilish. Bu qimmatli qog'ozlar investitsiyalar umumiy riskni diversifikatsiyala qilish va kata kata kapitallar jalb qilish imkonini beradi. Ikkilamchi aksiya emissiyasi miqdori jiddiy ravishda oshishi kerak va asosiy kapitaldagi investitsiyalarning joriy darajasini sezilarli oshirilishi lozim. Hozirgi vaqtda mahalliy fond bozorlari investitsion imkoniyatlarining cheklangan tanloviga ega bo'lganligicha, yetarli darajada likvidsizligicha qolmoqda. Shunga qaramasdan keying vaqtlarda to'g'ri investitsiyalar (strategic xorijiy

fondlarning yirik paketlariga turlicha ega bo'lish) vakapitalning portfelli quyilmalari doirasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda, o'zbek fond bozori infratuzilmaviy disproprsiyasi saqlanmoqda.

Korparativ boshqaruv amalyotidagi ijobiy o'zgarishlarga, XK faoliyati oshkoralik darajasining oshganligiga hamda hisobning halqaro standartlariga muvofiq hisobot tayorlashiga qaramasdan ko'pgina investorlar ko'z o'ngida O'zbekiston avvalgidek investitsiyalar uchun o'ta riskli deb qabul qilindi. Bumalum darajada potensial va real investorlar nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotida vaziyatlarning real yahshilanishi bilan uning imijining obyektiv o'zgarishi o'rtasidagi sezilarli vaqtinchalik vaqtinchalikligining mavjudligi bilan shartlashadi.

Respublikamizda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokida amalga oshirilayotgan loyhalarga(kiritiladigan investitsiya hajmiga ko'ra ) bir qator imtiyozlar berilgan

Jumladan, yer solig'i, mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni tolashdan ozod etish tarzidagi soliq imtiyozlari beriladi. Soliq imtiyozlari to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy xorijiy sarmoyalar quydagi xajimda jalb etilganda taqdim etiladi:

- 300ming AQSH do'lliridan 3milyon AQSH gacha -3 yil muddatga
- 3milyon AQSH dolliridan ortiq 10 milyon AQSH dollarigacha -5 yil muddatga
- 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga.

Tashqi savdo siyosati amalga oshirilayotganda ilgari tolangan bojxona bojini qaytarish, bojxona boji stavkasini pasaytirish va bojxona bojini tolashdan ozod etish tarzidagi tarif imtiyozlari quydagilarga nisbatan beriladi:

- O'zbekiston respublikasining xalqaro shartnomalariga ko'ra, xalqaro moliyaviy tashkilotlar va xorijiy hukumatning moliyaviy tashkilotlari tomonidan berilgan qarzarlar ( kreditlar) xisobidan, shuningdek grantlar xisobidan yuridik shahslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tavarlariga
- Ustav fondida ( ustav kapitalida) chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foyz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ular davlat ro'yhatidan o'tkazilgan paytdan etiboran ikki yil davomida o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka;
- Chet ellik investorlar chet ellik investorlar bilan tuzulgan mexnat shartnomalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqorolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doymiy ravishda yashaydigan fuqoroligi bo'lmagan shaxslarning shaxsiy ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka
- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga umumiy summasi 50 million AQSHdollar ekvivalentligidan ortiq bo'lgan to'g'ridan- to'g'ri investitsiyani amalgaoshirgan chet ellik yuridik shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib

kiriladigan tovarlarga bosharti olib kirilayotgan tovarlar ularning o'z ishlab chiqarish maxsuloti bo'lsa;

- Maxsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlar olib boorish uchun mo'ljallangan va loyiha hujjatlariga muvofiq maxsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan chet ellik investor yoki boshqa shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek, investor tomonidan bojxona hududidan olib chiqiladigan, mahsulot tahsimotiga oid bitimga muvofiq investorga tegishli bo'lgan mahsulotga.

Bundan tashqari qonunchilikda investorlar uchun nazorat qonunchilikda investorlar nazarda tutilgan imtiyoz va proferensiyalar.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 –dekabrdagi „ Investitsiyalar va investsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuniga ko'ra investitsiyalarni va investisiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab quvatlash uchun quyidagi imtiyoz xamda preferensiyalarni qo'llash nazarda tutilgan:

-davlat mulki bo'lgan ob'yektlarni yoki ularga bo'lgan mulkiy xuquqlarni imtiyozli yoki nolga teng harid qiymati bo'yicha investorga berish;

-soliqlar va to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish

- investisiya loyxasini amalga oshirish uchu investor tomonidan olinadigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini subsidiyalash.

Imtiyozlarva prefensiyalar quyidagilarga qarab beriladi:

- Investitsiyalar hajmiga
- Investisiya loyhasi amalga oshiriladigan joyining shart-sharoyitlariga;
- Kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy samaraga va yangi ish o'rinlarini yaratishga investitsiya loyxasini amalga oshirish soxalari va tarmoqlariga

Shuningdek, investorlarni qo'llab quvatlash maqsadida ularga investisiyaga oid soliq krediti xamda investisiya subsidiyasi berilishi mumkun.

Investitsiyaga oid soliq krediti. Bu soliq majburiyatini bajarish muddatini o'zgartirish shakli bo'lib, bunda soliq to'lovchi bo'lgan investorga belgilangan muddat ichida ushbu investor to'lashi kerak bo'gan soliq to'lovlarini kredit summasini va hisoblanan foizlarni O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga muvofiq kiyinchsli bosqichma bosqich to'lagan holda kamaytirish imkonini beradi.

Investitsiya subsidiyasi. Zarur muhandislik- kommunikatsiya sharoitlarini taminlash, shuningdek imtiyozlar berish uchun Xukumat investitsiya loyhasini amalga oshirish bo'yicha inestitsiya preferensiyasi tarzida taqdim etiladigan moliyaviy ko'mak sifatida investitsiya subsidiyasini berishi mumkun

Investorga zarur muhandislik - kommunekatsiya sharoitlari shaklidagi investitsiya subsidiyasi investitsiya faoliyati ob'yektiga olib boriladigan tashqi muhandislik –kommunikatsiya tarmoqlarini O'zbekiston Respublikasi tomonidan

qurish yo'li bilan ta'minlanadi. Investitsiya subsidiyasi soliq va bojxona imtiyozlari sifatida xam berilishi mumkun.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyani jalb etishda soliq siyosati muhim o'rin tutadi. Soliq imtiyozlari, stavkalarni maqbullashtirish va shaffof tizim yaratish investorlar uchun qulay muhitni yaratadi. Bu esa ishlab chiqarish hajmining oshishiga yangi ish o'rinlar yaratishga va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga olib keladi. Shunday ekan, O'zbekiston uchun soliq siyosatini izchil takomillashtirish va xorijiy sarmoyadorlar ishonchini mustahkamlash stratagik ahamyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.A.Sharipov
2. www:\lex.uz
2. Xolmirzayeva G.A ning
3. Ibragimova A.T ning "Milliy iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish istiqbollari" nomli maqolasi